

Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikni bajarmaslik O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 193⁴-moddasi talablari asosida javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsi yoki xodimi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi haqida xabar bermaslik, - **bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa, - **bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsiga ma'lum bo'lib qolgan, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko'rmaslik, - **bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida **takroran** sodir etilgan bo'lsa, -bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar davlat xaridlari sohasida sodir etilgan bo'lsa, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining **yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.



URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

- Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy
- t.me/urdpi_uz
- www.urspi.uz
- fb/urspi.uz
- Instagram.com/urspi.uz

Manfaatlar to'qnashuvi haqidagi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limiga yoki quyidagi telefon raqamlari orqali xabar berishingiz mumkin:

+998936194002
+998995607170



Urganch davlat pedagogika instituti

MANFAATLAR TO'QNASHUVI



Urganch shahar 2024-yil

Manfaatlar to'qnashuvi

Shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat.



Xodimning shaxsiy manfaatdorligi

Xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlar);



Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida Institut xodimi quyidagi hollarda manfaatlar to'qnashuvini to'g'risida xabar berishi kerak, agar:

- ◆ xodimning bevosita bo'ysinuvida yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslar bo'lsa;
- ◆ belgilangan tartibda faoliyati o'rganilayotgan tarkibiy bo'linmada xodimning yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslar faoliyat yuritsa yoki belgilangan tartibda faoliyat o'rganilayotgan mansabdor shaxs xodimning yaqin qarindoshi va (yoki) aloqador shaxs bo'lsa;
- ◆ xodim yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslarga nisbatan xodimlarga (jumladan, ish haqini hisoblash va to'lash, mukofotlar, ustamalariga taqdim etish va ularning miqdorini belgilashga) oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etsa.

Mazkur ro'yxat yakuniy hisoblanmaydi. Institut xodimi yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslarga nisbatan (ular faoliyat yuritayotgan tashkilotlarga) har qanday qarorlar qabul qilish (imtiyozlar berish, litsenziyalar taqdim etish, mahsulotlar sotib olish va shu kabilar) holati potensial manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday hollarda Institut xodimi manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berishi lozim bo'ladi.